



MILLIY BOYLIKLARNI ASRAB-AVAYLASH: KONSTITUTSIYAVIY
ASOSLAR VA HUQUQIY MASALALAR

Davlatova Shahzoda Rustam qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-bosqich talabasi

Tel: +998 95 040 26 12

Email: davlayshahzoda6@gmail.com

Annotatsiya: *Milliy boylik-bu mamlakatning tabiiy, madaniy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa resurslar majmuasi. Milliy boyliklar faqat mamlakat uchun emas, balki kelajak avlodlar uchun ham qimmatlidir, shuning uchun milliy boyliklarni asrab-avaylash juda ham zarur. Mazkur maqola milliy boyliklarning tushunchasi, ularning umumxalq mulki sifatidagi maqomi va muhofaza qilinishini tahlil etishga bag'ishlangan. Shuningdek, davlatning milliy resurslarni muhofaza qilishdagi roli, turli nomativ hujjatlar va qonunlarining ahamiyati haqida so'z boradi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining tabiiy va madaniy boyliklarini himoya qilish bo'yicha huquqiy tizimini tushunishga va ulardan oqilona foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Kalit so'z: *resurs, milliy boylik, muhofaza qilish, huquqiy tizim, moddiy, nomoddiy, sanoat*

PROTECTION OF NATIONAL WEALTH: CONSTITUTIONAL
FOUNDATIONS AND LEGAL ISSUES

Annotation: *National wealth is a collection of the country's natural, cultural, economic, scientific, and other resources. National wealth is valuable not only for the country but also for future generations, which is why it is essential to preserve it. This article is dedicated to analyzing the concept of national wealth, its status as the common property of the people, and its protection. It also discusses the state's role in protecting national resources and the significance of various normative documents and laws. This article aims to help understand the legal system for protecting Uzbekistan's natural and cultural wealth and emphasizes the importance of their rational use.*

Keywords: *resource, national wealth, protection, legal system, material, immaterial, industry*



**СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ БОГАТСТВ:
КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ И ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ**

Аннотация: *Национальное богатство-это совокупность природных, культурных, экономических, научных и других ресурсов страны. Национальное богатство ценно не только для страны, но и для будущих поколений, поэтому его необходимо сохранять. Эта статья посвящена анализу понятия национального богатства, его статуса как общего народного достояния и защиты. Также рассматривается роль государства в защите национальных ресурсов и значимость различных нормативных документов и законов. Статья направлена на понимание правовой системы защиты природных и культурных богатств Узбекистана и подчеркивает важность их рационального использования.*

Ключевые слова: *ресурс, национальное богатство, защита, правовая система, материальный, нематериальный, с промышленность*

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, intellektual hamda foydalanishga jalb qilingan tabiiy boyliklardan iboratdir.⁴¹ Milliy boyliklar davlatning tabiiy, madaniy, ilmiy, tarixiy va boshqa resurslarini o'z ichiga olgan bo'lib, u davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan: tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalaridagi boyliklar mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Milliy boyliklarni asrab-avaylash nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlod uchun ham juda muhim va dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Milliy boyliklarni asrab-avaylash davlat va jamiyatning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Har bir davlatning asosiy qonuni hisoblanadigan konstitutsiyasida ushbu boyliklarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha huquqiy kafolatlarni belgilaydi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni-Konstitutsiyasida milliy boyliklarni asrab-avaylash bilan bog'liq huquqiy normalar, ularning ahamiyati va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Milliy boylik keng ma'noda o'z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne'matlar, yaratilgan san'at asarlari, intellektual salohiyatni balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi.

Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

⁴¹ Voseeva S. MILLIY BOYLIK UNING TARKIBI VA KO'PAYTIRISH OMILLARI maqola [yosh olimlar nashriyoti]





1. Moddiy-buyumlashgan boylik. Bularga misol qilib sanoat inshootlari, qishloq xo'jaligi mulklarini keltirish mumkin;

2. Nomoddiy boylik ya'ni fan va ilmiy yutuqlar, intellektual mulk, milliy urf-odatlar, an'analar;

3. Tabiiy boylik. Bularga misol qilib yer osti boyliklari (gaz, neft, foydali qazilmalar), suv resurslari, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosi va iqlim resurslarini misol qilib keltirsak bo'ladi⁴².

Milliy boyliklar umumxalq mulki sifatida qaraladi ya'ni barcha fuqarolar uchun umumiy va teng ravishda foydalanuvchi va ularga tegishli mulk sifatida qaralishini anglatadi. Bu boyliklarni noto'g'ri ishlatish yoki saqlashning oldini olish maqsadida, bir qancha qonunlar bilan himoya qilinadi.

Milliy boyliklar davlat muhofazasida bo'lib buni xalqaro va milliy hujjatlar orqali keltirib o'tish mumkin. Masalan: O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaning XI bobi (Fuqarolarning burchlari) 61 va 62-moddalarida aynan ushbu masalalar ilgari suriladi. 61-modda.

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

62-modda.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlirlar.⁴³

Bundan tashqari:

1. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. Ushbu Qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.⁴⁴

2. "Yer to'g'risida"gi Qonun. Ushbu Qonun yerlardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, tuproqning unumdorligini tiklash va yaxshilash uchun yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

⁴² Jalolov.B "Milliy boylik" kurs ishi 03.11.2023 8-bet

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 61-62-moddasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁴⁴ "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" Qonun <https://lex.uz/acts/-107115>





3. “Suv va Suvdan foydalanish to’g’risida”gi Qonun. Ushbu Qonunning maqsadiga kelsak, aholi va iqtisodiy tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishni ta’minlash, suvlarni bulg’anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash va suvga doir munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

4. “Biologik xilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonun. Ushbu qonunning maqsadi, biologik xilma-xillikni tiklash va saqlash -ekologik xavfsizlikni ta’minlash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Milliy boyliklarni muhofaza qilish-bu mamlakatning tabiiy, madaniy, moddiy va nomoddiy resurslarini asrab-avaylash, maxsus qonunlar, me’yorlar orqali muhofaza qilish, milliy boyliklarga zarar yetkazganlik uchun ma’muriy va jinoiy javbogarlikni qo’llash tushuniladi. Mamlakatlar shu kabi jinoyatlarni kamytirish yoki butkul oldini olish maqsadida turli xil javobgarlikni ishlab chiqishadi. Milliy

boyliklarni himoya qilish nafaqat davlat, balki har bir fuqaroning burchidir.

O’zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida ham milliy boyliklarni muhofaza qilish borasida huquqiy ta’sir choralari keltirib o’tilgan. Masalan: Jinoyat kodeksining 4-bo’limi Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni va unga keltirilgan javobgarlikni o’z ichiga oladi.

203-modda. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og’ir oqibatlariga sabab bo’lsa, -bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

132-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish

Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo’lsa, -bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.⁴⁵

Bundan tashqari, ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksda ham javobgarlik turlarining bir necha ko’rinishi ta’kidlab o’tilgan.

702-modda. Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish

Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish, bundan yer osti suvlari va daryolar o‘zanlarida joylashgan foydali qazilmalar mustasno, -

⁴⁵ O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/mact/-111453>





ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni yoki ma'muriy huquqbuzarlikning bevosita ashyosini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa -yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

791-modda. O'simlik dunyosi obyektlarini yig'ish, tayyorlash va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlarini buzish

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyosini, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish hamda tayyorlashning, shuningdek o'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanishning belgilangan tartibini hamda shartlarini buzish, -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa -besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.⁴⁶

Bugungi kundagi ekologik muammolar kundan-kunga ortib bormoqda va dunyo aholisini tashvishga solmoqda. Atrof muhitni asrab-avaylash, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish har bir fuqaroning burchidir. Bu borada fuqarolarning ekologik madaniyatini va ongini oshirish juda muhim hisoblanadi. Ekologik madaniyat deganda insonlarning tabiatga nisbatan ehtiyotkorona, mas'uliyatli va ongli munosabati tushuniladi. Bunday madaniyatga ega bo'lgan shaxs atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka harakat qiladi, chiqindilarni to'g'ri tashlashni, resurslardan tejab-tergab foydalanishni biladi. Bu esa jamiyatda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.⁴⁷

Shu bilan birga, huquqiy ongni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Qonunlarni yaxshi bilgan fuqaro atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi biladi va to'liq tushunadi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, milliy boyliklarni asrab-avaylash va ulardan oqilina foydalanish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Hukumat aholining ekologik madaniyati va ongini oshirishga alohida e'tibot qaratishi lozim. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ularning ekologiya bo'yicha qonunlarga hurmat bilan qarash va ularga bo'ysinishini ta'minlash zarur. Bu orqali nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlod uchun ham muhimdir, chunki atrof-muhitni muhofaza qilish

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks <https://lex.uz/acts/-97664>

⁴⁷ "Atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari", o'quv qo'llanma. -Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2022. - 150 b.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hayotimizni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Voseeva S. MILLIY BOYLIK UNING TARKIBI VA KO'PAYTIRISH OMILLARI maqola ; yosh olimlar nashriyoti
2. Jalolov.B "Miliy boylik" kurs ishi [03.11.2023] 8-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 61-62-moddasi
4. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun [09.12.1992] 754-XII-son
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [01.04.1955]
6. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeks[01.04.1955]
7. "Atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari", o'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2022. - 150 b.